“O‘G‘UZNOMA”DA RAMZIY OBRAZLAR

Ataniyazova M.A.
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

Insoniyat tarixida odam hamisha yangilik yaratish bilan birga ijod qilishga, his-tuyg‘ularini, dunyoqarash va fikrlarini obrazli ifoda qilishga intilib yashagan. Natijada estetikaning turli ko‘rinishlari maydonga keldi. Shulardan biri badiiy adabiyot, yani so‘z san’atidir. Og‘zaki shakldagi badiiy asarlarning ko‘pchiligida asosiy o‘rinni egallagan unsur bu ramzlardir. Jahon adabiyotining ajralmas qismi bo‘lgan turkiy tildagi adabiyotda ham odam qalbida kechayotgan ruhiy voqeliklar, boshidan o‘tayotgan kechirmishlari asotir, rivoyat, afsona, doston kabi janrlarda ramziy obrazlar, ifodalar orqali o‘z aksini topgan.

Turkiy xalqlarning an’analaridan bo‘lgan qavmlarga nom qo‘yish, ularga dono kishining urug‘ boshi bo‘lishi ko‘pgina asarlarda o‘z ifodasini topgan. Bu o‘rinda “O‘g‘uznoma”, ”Qo‘rqut ota kitobi”, ”Turk xoqoni Shu va Iskandar” kabi dostonlar turkiy xalqlar og‘zaki ijodining qadimgi davrlarini yoritishda muhim manba sanaladi [1. – B.356]. Yuqoridagi asarlarning syujeti deyarli bir xil voqealikdan iborat bo‘lib, o‘z davrining qahramoliklarini tasvirlaganlar. Bu tasvirlarni ifodalashda turkiy xalqlarning mifologik qarashlari yetakchi o‘rin tutadi.

“Mifologik qarashlar inson ojizligini emas, o‘z faoliyati qudratiga pirovardida ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasiga ishonchi”, – deb fikr bildiradi filologiya fanlari doktori Asqar Musaqulov. Turkiy xalqlar eposlarida bu fikr yorqin isbotini topgan.

Xususan, mifologik qarashlar asos qilib olingan “O‘g‘uznoma” dostoni, uning vujuga kelishida O‘g‘uzxoqon qahramonliklari yetakchi vazifalarni bajargan. O‘g‘uz xoqon tarixiy shaxsmi yoki to‘qima obraz, degan jumboqqa ko‘plab filologik izlanishlarda to‘xtab o‘tilgan. A.M.Shcherbakka hamfikr sifatida G.Pottanning bu mavzudagi fikrlari aniqroq, ya’ni O‘g‘uzxon tarixiy shaxs emas, balki epos qahramonlarining ta’siri borligini ko‘rsatadi.

“Turk xoqoni Shu va Iskandar” dostonidagi voqealar “O‘g‘uznoma“ga yaqin deb keltirilgan. Har ikki asarda ham qabilalar etnonimiga keng to‘xtalib o‘tilgan. Lekin “Turk xoqoni Shu va Iskandar” dostonidagi kurash ikkita obraz qarama-qarshiligida kechadi. “O‘g‘uznoma”da esa O‘g‘uz turli dushmanlar bilan jangga kirishadi. O‘g‘uz va Kultegin harbiy yurishlari deyarli bir tarzda bayon qilingan. Yurishlar davomida yangi-yangi qabilalar tashkil etishlari ham ikkala asar syujetlarida mushtaraklikni ko‘rsatadi. Dostonning o‘ziga xos xususiyatlardan biri voqealilik tizimini boshqarib turuvchi bo‘ri obrazining qatnashishidir. Turkiy xalq etnonimiga bog‘liq ravishda

dostonga kirib kelgan. Bu etnonim “ona bo‘ri” rivoyatida berilgan bo‘lib. Undagi voqealar bog‘liq ravishda dostonda ham bo‘ri obrazi qo‘llanilgan.

Doston turkiy adabiyotdagi qahramonlik syujetlari orqali xalq niyatlarini yangi ifodada ko‘rsatgan. Dostondagi voqaelikni ifodalashda ramziylik asosiy vazifani bajargan. Ramziylik bu voqealarning inson xayolidagidek tasvirlanishi bo‘lib dostonda O‘g‘uzxonning onasi Oy kogon obrazining keltirilishi bilan ramziy talqinlar boshlanadi. Oy obrazini keltirish turkiy xalqlar an’ana tusiga kirgan.

O‘g‘uzxonning kiat (timsoh)ni qo‘lga kiritish uchun avval bug‘uni tol chivig‘i bilan daraxtga bog‘ladi, Ikkinchi marta esa ayiqni oltin kamar bilan bog‘laydi. “Tol chivig‘i”, “oltin kamar” detallari orqali O‘g‘uzxoqonning Kiatga bolgan munosabatining ramziy ifodasidir. Xivich – O‘g‘uzxoqon nopisandligi ramzi bo‘lsa, oltin kamar qattiyati ramzidir. Bu ramziylik adabiyotida yangi ramzlarni vujudga keltirgan. O‘g‘uz xoqon Tangriga yolvorganda ko‘kdan tushgan nur Tangrining mehri edi. Bu nur oldida Quyosh va Oy nuri ojizdir. Bu ramziylik an’anaviy ramzlarning yangi qirrasi hisoblanadi. *Quyosh, oy, yulduz* kabilar o‘zidan yorug‘lik, issiqlik taratuvchi osmon yoritgichlaridir. Qadimgi asotir va rivoyatlardan yozma badiiy adabiyotga qadar shakllanib kelganligi, ularga munosabat qay darajadagi nur manbai ekanligiga bog‘liq holda muayyan davrning ijtimoiy-estetik qarashlari tabiatidan kelib sodir bo‘lgan. Nur falsafa va tasviriy san’atning mavjud bo‘lishining kategoriyalaridan sanaladi, so‘z san’atida esa badiiy g‘oyani ifodalash vositasidir. Chunki nur badiiy adabiyotda dunyodagi o‘zgarishlar, rivojlanish, bog‘liklarning umumiy jihatlarini inkishof etilishining badiiy talqinlanishida asosiy jihat, birlamchi munosabat masalalariga har doim ham yechim topib berolmaydi. Shuning uchun u jarayonlarni ifodalashda muhim tushuncha darajasida motiv, obraz, timsol ko‘rinishlarida badiiy g‘oyani ochib beruvchi vazifasida keladi.

Asar markazida ifodalangan ramz bu bo‘ri obrazidir, uning qabilaga boshchilik qilishi xalqni birlashtirib turgan kuch, ya’ni birdamlikning ramziy ifodasi. Yana O‘g‘uzxoqon farzandlariga topshiriq qilib beriladigan o‘q, yoy timsollari ham ramz sifatida olingan. Bu ramzlar davlat va davlat boshqaruvining ifodasi va an’anaviy ramziylikka misollar safiga qo‘shilgan. Bu timsollarni aynan ramz sifatida qo‘llash “O‘rxun Enasoy” bitiklarida ham ko‘zga tashlanadi. Yoy, o‘q unsurlaridan tashqari, tush ko‘rish va tushni yo‘yuvchi yoki uni sotuvchi – ushimal – Ulug‘ Turk va uning ramziy ma’nosiga diqqat qilmoq ham lozim ko‘rinadi hamda bu uch unsurni yaxlit ko‘rish ham darkorga o‘xshaydi [2. 6-b].

Dostondagi ramzlarning alohidaligini ko‘rsatib turuvchi yana bir jihati ranglar qo‘llanilishidir. Rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar yaratish insoniyat badiiy tafakkurining qadim davrlarigacha borib taqaladi. Miloddan avvalgi IV-III asrlarda qadimgi Yunon olimi Aristotel ranglarning kelib chiqishi va xilma-xil ko‘rinishlarini tushuntirgan. Qadimda ranglarni narsalarning ko‘rinishiga qarab aniqlagan masalan,

olov qizil, quyosh sariq deb ataganlar. Ular tabu tufayli asl nomini aytolmagan, Demak, ranglarni ramzlantirish insonning ongli hayoti va turmush tarzi bilan bog‘liq. Ranglar haqida ilohiylik kuchiga ega tasavvur qadimda juda ishonilgani ularning tanalariga bo‘yoqlar bo‘yab yurishidan ham bilsak bo‘ladi. Bu bilan ularni o‘limdan himoyalashgan. Qadimgi odamlar himoya xususiyatiga ega deb tasavvur etishgan. har bir rang o‘ziga xos ramziy tushunchalar majmuasini kasb etadiki, bunda u dunyoviy yoki diniy qaraslarda falsafiy-ijodiy qarashlarni o‘zida namoyon qiladi. Bunday qarashlarda asosan yetti rangdan foydalanilishgan: oq, qora, sariq, qizil, yashil, ko‘k [3. 80-b].

Ko‘k rang xususiyati taskin beruvchanlik ekan. Bu ta’rif aynan asar mazmuniga tushmoqda. Ya’ni, insonlarning yovuzlikdan himoyalanishida taskinlarni tasvirlangan. Qabilga yo‘lboshchilik qilayotgan bo‘ri obrazining ko‘k rangda qo‘llanilishi uning kuch-qudratiga ishonchni ko‘rsatsa, Og‘uzxoqonning ham ko‘k rangda tug‘ulishi uning yaxshi hukmdor bo‘lishida xalq ko‘ngli taskinini ko‘rsatadi. Og‘zi esa olovday qizil. Demak, ikkinchi qo‘llanilayogan rang qizil. Bu rang tarifiga e’tibor qaratsak quvonch deb berilgan. Lekin bu nuqtada bu ta’rifga mos tushadigan ramziylikda qo‘llanilyotgani yo‘q. Asosiy voqealar ko‘lami oq va ko‘k ranglar doirasida yuz beradi. Ranglar ochiq va yopiq tusda bo‘lar ekan. Demak, doston ochiq ranglar uyg‘unligidan iborat. Bu esa dostonda o‘ta kuchli salbiy xolatlar yo‘qligidan dalolat beradi. Ma’lum bo‘ladiki, ranglar yuzaga kelishi haqidagi xalq qarashlari, ular bilan bog‘liq tarzda yaratilgan badiiy timsollar va obrazlarning yuzaga kelishi, bunga asos bo‘lgan mifologik tasavvur –tushunchalar ranglarning qiyosiy manba, tadrijiy rivoji, badiiy matnlardagi mavzuviy turlari o‘zaro bog‘liq o‘rganiladi [3. 80-b].

Har bir rang muayyan xalqning tafakkuri, qarashlari bilan bog‘liq majoziy ma’no kasb etadi. Garchi ma’lum bir xalq adabiyotida biror rang qo‘llanishidan badiiy-estetik hodisa bo‘lish bilan birga muallifning o‘ziga xos yondashuvi o‘z aksini ko‘rsatib turadi.

Bu kabi ifoda uslubidagi o‘ziga xosliklar turkiy xalqlarning, xususan, o‘g‘uzlarning hayotini yoritishda yangi jihatni ochib berdi, o‘lmas tarixni yangi qirralarda yangiladi. Doston shakllanishi va bugungi kungacha etib kelishi turkiy xalqlarning tarixni tanishtirishda bosh omil vazifasini bajarmoqda. Dostonda barcha xalq ijodiga mansub barcha asarlardagidek yovuzlik ustida ezgulik g‘alabasini ko‘rsatar ekan turkiylarning mard va saxiy bo‘lganini ko‘rsatadi. Qolaversa, qanday bosqichlarda shakllanib borganini ham qisqa mazmunlarda ko‘rishimiz mumkin. O‘g‘uzxoqon timsolida ular mard va saxiy humdorini ko‘rsatgan. Uning lashkarboshilarining zafarli harakatlarida rag‘batlantirib turilishi bunga isbot bo‘la oladi.

Asardagi voqealiklar esa keyingi qahramonlik dostonlariga asos vazifasini o‘tadi. A.Abdurashidov asarida keltirilishicha Qirg‘iz xalq dostoni “Manas”, shuningdek “Alpomish” dostonlari o‘rtasida o‘xshash jihatlari mavjud. Bu ma’lumot esa

“O‘g‘uznoma”ning adabiyotimizda ahamiyati kattaligini ko‘rsatadi. Ushbu 375 misrali bitikdan V.V.Radlovning «Qadimgi turkiy lug‘at» asarida turkiy so‘zlar va tushunchalar ma’nosini ochishda «Devonu lug‘atit turk», «Qutadg‘u bilig», O‘rxun toshbitiklari, «Hibat ul-haqoyiq» kabi ulug‘ bitiklar qatorida foydalanganligi uning tilimiz tarixini ochishdagi mavqeini ko‘rsatadi. Ushbu asarni tilshunoslar, adabiyotshunoslar, tarixchilar har tomonlama o‘rganib tahlil etsalar etnografiyamiz, mifologiyamiz borasidagi ancha-muncha muammolarimizning yechimini topishda katta ahamiyat kasb etishi aniq [2. 7-b].

Nur obrazining nasrdagi vazifasi lirikadagidan farq qiladi, negaki nasr badiiy reallikni tabiiylikka yaqin tasvirlaydi. Garchi har qanday nasriy yo‘lda yozilgan asar ham badiiy to‘qima bo‘lsa ham, kitobxonda xuddi real sodir bo‘lgan voqelik taassurotini uyg‘otadi va bunga ishontiradi ham.

Doston o‘zida ijtimoiy-siyosiy, adabiy qarashlar majoz va haqiqatni birlashtirgan nuqtasida xalq orzu-o‘ylarini tasvirlagan, ramziylik va majoziy obrazlar asosida xalq tafakkurini, orzu-umidlarini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Abdurashidov. Turkiy xalqlar o’zaki ijodi. Samarqand. 2006. – B.356
2. Ўғузнома. (Нашрга тайёрловчи: Бахтиёр Исабек). Тошкент. 2007. – Б.26
3. Mohichehra Ro‘ziyeva. Ranglar haqida xalq qarashlari. ”O‘zbek tili va adabiyot” jurnali. 2008-yil, 5-son.
4. A.M. Sherbak. Oguz-name. Muxabbat-name. L.: 1959.
5. N. Rahmonov. O‘g‘uznoma (yoki xoqon haqida doston). «Sharq Yulduzi» jurnali. 1987-yil, 4-son.